U.HAMDAM ROMANLARIDAGI PROFESSIONALIZMLARNING MAVZUVIY PARADIGMASI

Asatulloyeva Muhayyo
Farg‘ona davlat universteti tadqiqotchisi

Anotatsiya
Ushbu maqolada kasb-hunar leksikasining qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, qurilish, ta’lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy-mehnat sohalariga oid mavzuviy guruhlari ajratilib, ularning badiiy matndagi qo‘llanish chastotasi hamda uslubiy vazifalari ochib beriladi. Shuningdek, mazkur leksik qatlamning sinonimik, giperonimik-giponimik, tematik va assotsiativ munosabatlar asosida paradigma hosil qilishi tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari kasb-hunar leksikasining alohida so‘zlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro semantik bog‘langan va muayyan konseptual maydonni tashkil etuvchi tizim sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *antroposentrik paradigma, sistema, termin, professionalizm, paradigmatik munosabat, assotsiativ munosabat, giper-giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlar.*

KIRISH

Professionalizmlarning asosiy qismini har bir kasb-korda shu sohaning terminlari tashkil etadi. Shunningdek, profesionalizmlar turli fan-texnika, maktab-maorif sohalarida, ma’muriy-xo‘jalik ishlarida va boshqa sohlarda ham mavjud [1]. Masalan: O‘qituvchilik sohasida: *kitob, daftar, jurnal, ruchka, qalam, auditoriya, talaba, davomat, yig‘ilish, yakuniy nazorat, oraliq nazorat, joriy nazorat, zachotka, talaba guvohnomasi, qo‘llanma…* kabi.

Shifokorlik sohasida: *retsept, bemor, muolaja, inneksiya, kasallik tarixi, palata, ukol, igna, shipris, termometr, analiz, labaratoriya, hamshira, dori, tabletka, qon bosim…* kabi.

Rassomchilik sohasida: *mo‘yqalam, qalam, chotka, qog‘oz, surat, bo‘yoq, plakat, portret, notyurmort, grafika…* kabi.

Huquq sohasida: *vasiyatnoma, sud, sudlanuvchi, advakat, prokuror….* kabi

Shu o‘rinda termin va professionalizmlarning o‘zaro farqini keltirib o‘tamiz. Termin bu muayyan fan sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikidagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan, qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasi, nomidir; professionalizmlar esa biror kasb, mutaxassislik, ko‘pincha jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat’iy, ilmiy tavsifga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir, – deb yozadi A.V. Kalinin. Shunga muvofiq ilmiy uslubga oid har qanday termin lug‘atlarda qayd etilgan, etilmaganligidan qat’iy nazar adabiy til birligi hisoblanadi. Lekin hunarmandlar nutqida faol qo‘llaniladigan, milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlarmizni o‘zida mujassamlashtirgan narsa va predmetlar, ularni yasash, sotish, kabi jarayonlarni ifodalaovchin atamalr nutqimizda qolib ketamoqda. O‘zbek tilining leksik qatlamini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ishlarda ham tadqiqot obyekti tegishli guruhlarga ajratilgandan keyin, ularning tarkibiga kiruvchi terminlar ro‘yxatini keltirish bilan kifoyalanildi. Natijada tilshunoslikda bu kabi tadqiqotlar leksikani sistema sifatida o‘rganish uchun bazagina bo‘lib xizmat qiladi, degan fikrlar bildirildi [2]. Shunga ko‘ra kasb-hunar leksikasiga bag‘ishlangan ishlarda har bir mikroguruh tarkibiga kiritilgan

so‘z-terminlarning leksik-semantik munosabatlarini aniqlashga tirishildi. Jumladan, M.Abdiyev, O‘.M.Po‘latova, L.S.Xudoyberdiyeva, G‘.M.Ismailov, Sh.X.Norbayevaning izlanishlari fikrimiz dalilidir.

Shuningdek, aynan kasb-hunarga oid so‘z-terminlar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlar ham talaygina bo‘lib, sohaviy terminologiyaning rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shilgan. Bular sirasiga S. Ibrohimov – metallsozlik, T.Tursunova – amaliy san’at, M.Asomiddinova – kiyim-kechak, M.Baqoyeva – zardo‘zlik, N.Ikromova – kulinariya, A.Sobirov – dorbozlik, I.Pardayev – zargarlik sohasida olib borilgan izlanishlari yuqoridagi fikrlarimiz dalilidir.

Leksemalarni, xususan, terminlarni sistemaviy o‘rganish ularni ma’lum mavzuviy mikromaydonlarga birlashtirdi. F.Filin bunday boshqacha guruhlashni “tematik guruh” deb nomlaydi. D.Shmelyov esa so‘zlarni muayyan majmuaga birlashtirish ularda yashiringan umumiy semantik elementlarni topishga yordam beradi, deb keltiradi. Yuqoridagi olimlar fikridan kelib chiqib M.Abdiyev leksemalar orasidagi sistem aloqalarni aniqlash uchun xilma-xil tematik guruhlarni tadqiq etish lozim degan, xulosa keladi. Shuningdek, terminologik soha leksemalarini ma’lum mavzular asosida guruhlash ularni o‘rganishni osonlashtiradi, xotirada aniq ma’lumotlar bo‘lishiga yordam berdi. So‘z-terminlarning mavzuviy mikromaydoni haqida gap ketarkan, dissertatsiyamiz obyekti bo‘lgan U.Hamdam romanlaridagi mavzuviy mikromaydonlar tahlilini ham keltiramiz. Bunday mavzuviy mikromaydonlarni olimlar “tematik guruh” deb nomlashgan. Tilning lug‘at tarkibini lug‘aviy-ma’noviy guruh asosida o‘rganish sistem leksikologiyaning eng muqobil tushunchalaridan biridir. U.Hamdam romanlarida kasb-hunar leksikasining quydagi tematik guruhlarini ko‘rishimiz mumkin:

1.O‘qituvchilik sohasiga oid: *qo‘llanma, auditoriya, maqola, talaba, talabalar turar joyi, maxsus kurs, kutubxona…*

Tovba, nimasiga buncha keriladi? To‘g‘ri ilmi bor. Lekin nima qilib beryapti o‘sha bilgan narsasi, o‘qigan kitoblari, yozgan maqolalari?.. [U. Hamdam. Muvozanat.71-b.]

2. Shifokorlik sohasiga oid: *igna, ukol, dori, palata, tez yordam, bemor, hamshira, retsept, vrach….*

– Voy, manavi kishiga qaranglar, – kuldi hamshira xiyol qizarib. – Men o‘zimcha sizga dori buyurolmayman. Vrachdan so‘rab kelay, – qo‘lini arang qutqarib olgan qiz chopib nari ketdi… [U.Hamdam. Otash]

3. Savdogarlik sohasiga oid: *kassa apparati, mol, yoymachi, xaridor, bozor, do‘kon, nasiya, pul…*

– Senga falon so‘m berib yo‘lkira qilib kelsam-u, bu yoqda molning uchdab biri yetmay tursa. O‘zi-ku, qovunni nasiyaga olgan bo‘lsam, borishim bilan egalari “pulim” deb uyimga kelsa, ha, bunaqada meni xonavayron qilgan bo‘p chiqmaysanmi, bachchag‘ar?.. [U.Hamdam. Isyon va itoat romani.11-b]

4. Huquqshunoslik sohasiga oid: *sud, hujjat, ajrim, huquq, nafaqa, vasiyatnoma, sudya, kishan, qamoq…*

Ertaga ular notariusga borishadi. Mahkam kampirga bir kor-xol bo‘lmasdan burun vasiyatnomani rasmiylashtirib qo‘yishni istardi. [U.Hamdam. Isyon va itoat romani.13-b]

5.Chorvachilikka oid: *mol, qo‘y, tert, somon, un, poda…*

Qayrilib, yo‘l yoqasida o‘zi tomon yurib kelayotgan Rashidni ko‘rdi. U mol-qo‘ylarga tert tayyorlayotgadi, un va somon yuqi kaftini emas, shimarilgan bilagini tutib yusuf bilan quyuq ko‘rishdi… [U.Hamdam. Muvozanat 92-b]

6.Ustachilikka oid: *lo‘mboz bosish, usta, yordamchi,loy, andava, loy suvoq, somonli loy…*

Tongotar g‘ira-shirasida paypaslab andavani topdi, qotib qolgan loyini yerga urib qoqdi, so‘ng silliq qismini obdon yuvdi-da ishga kirishdi…[U.Hamdam. Isyon va itoat. 33-b]

Yuqoridagi badiiy asardan olingan misollarda ayni asarda keltirilgan kasb-hunarlarga oid professionlizmlarni tematik guruhlarga ajratdik.

Navbatda U.Hamdam romanlaridagi kasb-hunar atamalarining paradigmatik munosabatlarini ko‘rib chiqamiz. Paradigmatik munosabat (o‘xshashlik) – o‘zaro teng munosabatdagi, bir umumiy belgi asosida birlashib, qator hosil qiluvchi, ammo o‘ziga xos belgilariga ko‘ra farqlanib turuvchi birliklarning o‘zaro aloqasini ifodalaydi[3].

1.So‘z-terminlarning giponimik munosabati. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning tur-jins munosabatiga nisbatan aytiladi. Bunday bog‘lanishlarni hayotning har bir jabhasida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, shifokorlik sohasiga oid dori giperonimining uyqu dori, vitamin, antibiotik kabi giponimlari bor. Badiiy asardan misol keltiramiz:

– Judayam uxlagim kelyapti. Iltimos, uyqu doringizdan bersangiz, – yalingannamo ohangda dedi Otash o‘zini karavotga o‘tqazib qaytishga chog‘langan hamshiraning qo‘llarini tutib… [U.Hamdam.Otash]

2.Lisoniy birliklarning butun-bo‘lak munosabati esa partonimik munosabat deyiladi. Ko‘p tadqiqotlarda bu munosabat turlicha atalib kelinmoqda: partonimiya, butun-bo‘lak, butunnom-bo‘laknom kabi[4]. Partonimik munosabat turli mikroguruhchalarni hosil qiladi. Shunday qilib so‘z-terminlar ham o‘zaro paradigmatik munosabatlar hosil qila olishi misollar yordamida o‘z isbotini topdi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sohaviy leksika asosan, nutqqa xos bo‘lsa ham, zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan turli fan-texnika, maktab-maorif sohalarida , ma’muriy-xo‘jalik ishlarida va boshqa sohlarda ham mavjudligi tan olinyapti va ularni yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, ma’lum tematik guruhlarga, paradigmalarga bo‘lib o‘ganish davom etyapti. Bu esa tilimiz rivojining yutug‘i va mustahkamligidan darak beradi. Ushbu leksik birliklarning tematik guruhlar va paradigmatik munosabatlar asosida tizimli o‘rganilishi tilning ichki imkoniyatlari, semantik taraqqiyoti va funksional salohiyatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek tilining dinamik rivojlanishi, terminologik boyishi va ijtimoiy hayotning turli jabhalariga moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sohaviy leksika faqat nominativ birliklar majmui sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy guruhlarning kommunikativ tajribasi, kasbiy madaniyati va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi sotsiolingvistik hamda sotsiopragmatik hodisa sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir professional birlik o‘zida ma’lum bir kasb egalarining dunyoqarashi, ijtimoiy mavqei, nutqiy odatlari va kommunikativ strategiyalarini

mujassamlashtiradi. Mazkur birliklarning nutqda qo‘llanishi muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, kasbiy mansubligi, kommunikativ niyati hamda muayyan nutqiy vaziyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Demak, sohaviy leksikani sotsiopragmatik nuqtai nazardan tadqiq etish nafaqat uning semantik va paradigmatik xususiyatlarini, balki til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, kasbiy guruhlarning lisoniy identifikatsiyasini hamda ijtimoiy-kommunikativ jarayonlardagi funksiyalarini aniqlash imkonini beradi. Natijada, professional leksika til tizimining tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga, jamiyatning madaniy, ijtimoiy va kommunikativ taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita ekanligi oydinlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Турсунов У, Мухторов А, Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 148-b
2. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 2004. – бет
3. Sayfullayeva R, Mengliyev B va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent. 2009, 38-b
4. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. 2004. – 26 бет
5. Bagaliyev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksik qatlami, – Toshkent,1981
6. Dadaboyev D. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent,2019.
7. Ibrohimov S. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. II-III . – Toshkent: Fan,1959.
8. Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili(Samarqand viloyati kasb-hunar terminlari asosida). Filol.fan d-ri…diss.aftoref. – Toshkent,2005
9.Ulug‘bek Hamdam. Muvozanat roman. – Toshkent,2003.109,137,138,197,154-b
10.Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент. 1977.
11. Hakimov M. Pragmalingvistika asoslari.– Toshkent. 2020.
12. Halilova M. O‘zbek tili stilistikasi asoslari.– Farg‘ona. 2009.
13. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlari izohli lug‘ati. – Toshkent. 2002.
14. Ҳожиев А. Термин танлаш мезони.1996.
15. Ibrohimov S. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. II-III . – Toshkent: Fan,1959.
16. Iminov M, Numonov T, Boboxonova D. O‘zbek tilininig uslubiyati masalalari.– Namangan. 2007.
17. Ismoilov G‘. O‘zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo‘lishi. Filol.fan d-ri…diss.aftoref. – Toshkent. 2011.
18. Искандарова Ш. Ўзбек нутк одатининг мулокот шакллари. Автореферат. – Самарканд. 1993.
19. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, – Toshkent. 2002.
20. Madvaliyev A O‘zbek tili leksikologiyasi va terminologiyasi. – Toshkent, 2017.
21. Ulug‘bek Hamdam.Otash mini-roman.
22. Ulug‘bek Hamdam.Isyon va itoat romani.
23. Ulug‘bek Hamdam. To‘rtko‘cha romani.